XALQ DEPUTATLARI BEKOBOD SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-4-013-10-149-K/24 Bekobod shahar

Bekobod shahrining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1011-son Qonuniga va Xalq deputatlari Toshkent viloyat Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-3-030-10-0-K/24-son qaroriga muvofiq hamda Toshkent viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 26-dekabrdagi 01/01-04/443-sonli xatini inobatga olib, Xalq deputatlari Bekobod shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Xalq deputatlari Тошкент viloyat Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-3-030-10-0-K/24-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Bekobod shahar mahalliy budjetining 2025-yilgi daromadlari 97 020 910 ming so‘m va xarajatlari esa 97 020 910 ming so‘m miqdorida tasdiqlanganligi, shuningdek Bekobod shahar mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 503 576 ming so‘m etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Shahar mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda shahar mahalliy budjetidan 2025-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq, shuningdek Bekobod shahar mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Shahar mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025-yil uchun 1 475 161 ming so‘m miqdorida belgilansin. Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari

shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlar doirasida:

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 m^2 uchun mutlaq miqdorda belgilangan minimal qiymatga nisbatan kiritilayotgan koeffitsientlar muvofiq tasdiqlansin.

-yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari 5-ilovaga muvofiq;

-jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i bo‘yicha o‘rnatilgan soliq stavkalariga 0,7 dan 1,3 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 6-ilovaga muvofiq;

YaTTlar uchun belgilangan eng kam va eng yuqori stavkalari 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlarda quyidagicha tasdiqlansin:

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 0,7 dan 1,3 gacha qo‘llaniladigan koeffitsientlar miqdori 8-ilovaga muvofiq;

noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsientlar miqdori 9-ilovaga muvofiq;

mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsientlar miqdori 10-ilovaga muvofiq.

shahar mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 11-ilovaga muvofiq тасдиқлансин.

6. Shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Q.Safarov, shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi, shahar soliq inspeksiyasi (F.Mamatqulov) bilan birgalikda 2025-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va

o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

8. Mazkur qaror Bekobod yangliklari-Novosti Bekabada gazetasida va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda Shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Mazkur qaror ijrosini bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari Bekobod shahar Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi raisi U.Abdunazarov qaror ijrosini ta’minlash shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Q.Safarov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi BABAYEV NASRULLA NURILLAYEVICH

Xalq deputatlari Bekobod shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-013-10-149-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Shahar mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

№	Daromad turlari	Ming.so‘m
	JAMI	**97 020 910,0**
1	Foyda solig‘i	1 833 650,0
2	Aylanmadan olinadigan soliq	9 616 000,0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	38 059 260,0
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	3 454 000,0
5	Aksiz solig‘i jami	12 176 000,0
	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	*0,0*
	pivo	*0,0*
	benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	*12 176 000,0*
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	5 978 000,0
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	7 938 000,0
8	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	6 111 000,0
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	6 725 000,0
10	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	40 000,0
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	4 774 000,0
12	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	0,0
13	Davlat boji	0,0
14	Yig‘imlar	0,0
15	Jarimalar	0,0
16	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	316 000,0

Xalq deputatlari Bekobod shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-013-10-149-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Bekobod shahar mahalliy budjetidan 2025-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

T/r	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Ming so‘m
	Xarajatlar miqdori, jami	**97 020 910,0**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	18 509 054,0
	shundan:	*0,0*
	"Mening maktabim"	*1 023 179,0*
2	Bolalar musiqa va san’at maktablari	8 976 027,0
3	Madaniyat bo‘limi	1 231 051,0
4	Axborot-kutubxona markazi	533 268,0
5	Sport maktabi	8 558 266,0
6	Obodonlashtirish boshqarmasi	20 124 119,0
7	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi	849 090,0
8	Yoshlar ishlari agentligi	4 097 866,0
9	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1 545 768,0
10	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlari	2 153 111,0
11	Xalq deputatlari shahar kengashi kotibiyati	283 955,0
12	Shahar hokimligi	29 293 561,0
	shundan:	0,0
	Shahar hokimligini saqlash xarajatlari	*7 766 950,0*
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*145 352,0*
	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	*329 532,0*
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”	*34 650,0*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*19 541 916,0*
	Zahira jamg‘armasi	*1 475 161,0*
13	Mahallalar uyushmasi "Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	865 774,0

Xalq deputatlari Bekobod shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-013-10-149-K/24 -son qaroriga
3-ilova

Bekobod shahar mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari

Soliq turlari va taqsimlovchilar nomi		Ajratma me’yori
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Hududlararo yirik soliq to‘lovchilar inspeksiyasi bo‘yicha	0%
	Davlat soliq inspeksiyasi bo‘yicha	51%
Foyda solig‘i	Hududlararo yirik soliq to‘lovchilar inspeksiyasi bo‘yicha	0%
	Davlat soliq inspeksiyasi bo‘yicha	13%
alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	Hududlararo yirik soliq to‘lovchilar inspeksiyasi bo‘yicha	0%
	Davlat soliq inspeksiyasi bo‘yicha	0%
pivo	Hududlararo yirik soliq to‘lovchilar inspeksiyasi bo‘yicha	0%
	Davlat soliq inspeksiyasi bo‘yicha	0%
benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	Hududlararo yirik soliq to‘lovchilar inspeksiyasi bo‘yicha	0%
	Davlat soliq inspeksiyasi bo‘yicha	100%
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Hududlararo yirik soliq to‘lovchilar inspeksiyasi bo‘yicha	0%
	Davlat soliq inspeksiyasi bo‘yicha	100%
Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Hududlararo yirik soliq to‘lovchilar inspeksiyasi bo‘yicha	0%
	Davlat soliq inspeksiyasi bo‘yicha	100%
Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Hududlararo yirik soliq to‘lovchilar inspeksiyasi bo‘yicha	100%
	Davlat soliq inspeksiyasi bo‘yicha	100%
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Hududlararo yirik soliq to‘lovchilar inspeksiyasi bo‘yicha	100%
	Davlat soliq inspeksiyasi bo‘yicha	100%
Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar	Hududlararo yirik soliq to‘lovchilar inspeksiyasi bo‘yicha	0%
	Davlat soliq inspeksiyasi bo‘yicha	100%
Aylanmadan soliq		100%
Davlat boji		0%
Jarima		0%
Yig‘imlar		0%

Xalq deputatlari Bekobod shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-013-10-149-K/24 -son qaroriga
4-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha yer solig‘i stavkalari uchun 2025-yilda belgilangan koeffitsientlar miqdorlari

№	MFY	Jismoniy shaxslar bo‘yicha, 1 kv.m uchun(turar joylar uchun belgilangan o‘sish m’yoridan oshmagan holda)		Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 kv.m uchun	
		Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025 yil uchun (so‘mda)	Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025 yil uchun (so‘mda)
1	Yangi Xayot MFY	1,00	512,40	1,00	5 698,00
2	Shirin MFY	1,10	563,64	1,10	6 267,80
3	Sementchi MFY	1,00	512,40	1,00	5 698,00
4	X.Olimjon MFY	1,10	563,64	1,10	6 267,80
5	Tinchlik MFY	1,20	614,88	1,20	6 837,60
6	Fargona MFY	1,10	563,64	1,10	6 267,80
7	A.Navoiy MFY	1,00	512,40	1,00	5 698,00
8	Al-Xorazmiy MFY	1,20	614,88	1,20	6 837,60
9	Andijon MFY	1,20	614,88	1,20	6 837,60
10	Birdamlik MFY	1,10	563,64	1,10	6 267,80
11	Bobur MFY	1,10	563,64	1,10	6 267,80
12	Bog’ishamol MFY	1,10	563,64	1,10	6 267,80
13	Buloqariq MFY	1,10	563,64	1,10	6 267,80
14	Bunyodkor MFY	0,80	409,92	0,80	4 558,40
15	Do’stlik MFY	1,10	563,64	1,10	6 267,80
16	Yoshlik MFY	1,10	563,64	1,10	6 267,80
17	Farxod MFY	1,00	512,40	1,00	5 698,00
18	Istiqlol MFY	1,00	512,40	1,00	5 698,00
19	Q.Farmonov MFY	1,10	563,64	1,10	6 267,80
20	Madaniyat MFY	1,00	512,40	1,00	5 698,00
21	Ma‘rifat MFY	1,10	563,64	1,10	6 267,80
22	Jomiy MFY	0,80	409,92	0,80	4 558,40
23	Muqumiy MFY	1,20	614,88	1,20	6 837,60
24	O‘zbekiston MFY	1,30	666,12	1,30	7 407,40
25	Metallurg MFY	1,20	614,88	1,20	6 837,60
26	Taraqqiyot MFY	1,10	563,64	1,10	6 267,80
27	Sirdaryo MFY	1,20	614,88	1,20	6 837,60
28	Samarqand MFY	1,20	614,88	1,20	6 837,60
29	Turkiston MFY	1,20	614,88	1,20	6 837,60
30	Paxtakor MFY	1,10	563,64	1,10	6 267,80
31	Obod turmush MFY	1,20	614,88	1,20	6 837,60
32	Nurli yo‘l MFY	1,30	666,12	1,30	7 407,40
33	Navruz MFY	1,00	512,40	1,00	5 698,00

34	Mustaqillik MFY	1,10	563,64	1,10	6 267,80
35	Sayxun MFY	1,10	563,64	1,10	6 267,80

Xalq deputatlari Bekobod shahar Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-013-10-149-K/24 -son qaroriga
5-ilova

Yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari

Koeffitsient	**Mutloq miqdor** *(so‘mda)*
1,00	1 300 000,00

Xalq deputatlari Bekobod shahar Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-013-10-149-K/24 -son qaroriga
6-ilova

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i bo‘yicha o‘rnatilgan soliq stavkalariga 0,7 dan 1,3 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar miqdorlari

Koeffitsient*				
Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m gacha bo‘lganlarini qo‘shib hisoblaganda), ko‘p kvartirali uylarga uzviy bog‘liq bo‘lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	200 kv.m dan ortiq va 500 kv.m gacha bo‘lgan	500 kv.m dan ortiq bo‘lgan	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo‘lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish ob’ektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk ob’ektlari
1,10	1,10	1,10	1,10	1,00

Xalq deputatlari Bekobod shahar Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-013-10-149-K/24 -son qaroriga
7-ilova

YaTTlar uchun belgilangan eng kam va eng yuqori stavkalari

Chakana savdo			Maishiy xizmat	Boshqa faoliyat turlari	Yuk tashish faoliyati	
oziq-ovqat va nooziq ovqat tovarlari sotish	dexqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi maxsulotlari sotish	gazeta jurnallar va kitob maxsulotlari sotish			3 tonna-gacha yuk tashish avtomobillari uchun	3 tonnadan ortiq yuk tashish avtomobillari uchun
400,00	150,00	150,00	200,00	200,00	250,00	350,00

Xalq deputatlari Bekobod shahar Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-013-10-149-K/24 -son qaroriga
8-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 0,7 dan 1,3 gacha qo‘llaniladigan koeffitsientlar miqdorlari

Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YaTTlar		**Sanoat korxonalari**		**Avtotransport vositalarini yuvish**		**Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)**	
Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
1,15	1,15	1,15	1,15	1,15	1,15	1,15	1,15

Xalq deputatlari Bekobod shahar Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-013-10-149-K/24 -son qaroriga
9-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsientlar miqdorlari

Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh *(sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari)*, dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosienitlar, sienitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	**Tabiiy bezaktoshdan bloklar**	**Marmar**	**Granitlar**	**Gips toshi, gips va angidrid, ganch**	**G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar**	**Qum-shag‘al aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)**
1,25	1,15	1,15	1,25	1,25	1,25	1,25

Xalq deputatlari Bekobod shahar Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-013-10-149-K/24 -son qaroriga
10-ilova

Mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsientlar miqdorlari

Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan daromad solig‘i ming so‘mda					
Turar joylar uchun			**Noturar joylar uchun**		
2025-yil minimal qiymat	koeffis-ient	2025 yil stavka	2025 yil minimal qiymat	koeffis-ient	2025 yil stavka
5,50	1,30	7,15	11,00	1,30	14,30

Xalq deputatlari Bekobod shahar Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-013-10-149-K/24 -son qaroriga
11-ilova

Shahar mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori

Hudud	Ming so’m
Bekobod shahar	503,576